



---

## COMMENTS ON THE LINGUISTIC FOUNDATIONS OF THE CORPUS OF UZBEK NATIONAL DIALECTS

Ro'ziyeva Durдона Nuriddinovna<sup>1</sup>

*Termiz State University*

---

### KEYWORDS

dialectisms, corpus, dialect,  
base, Turkology, standard  
language, language style

### ABSTRACT

In the modern globalization process of linguistics, an important task is to create a base of dialectisms in national corpora that are understandable to everyone. As a result, the analysis and study of dialects are expanding. At the same time, recording and reproducing dialects that are disappearing today.

2181-2675/© 2023 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.10245771**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

---

<sup>1</sup> Student of the Faculty of Uzbek Philology, Termiz State University, Uzbekistan ([roziyevadurdona2004@gmail.com](mailto:roziyevadurdona2004@gmail.com))

## O'ZBEK MILLIY SHEVALARI KORPUSINING LINGVISTIK ASOSLARIGA DOIR MULOHAZALAR

### KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:

dialektizmlar, korpus, lahja, baza, turkologiya, adabiy til, uslub

### ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Hozirgi zamonaviy globallashuv jarayonida har bir shaxs tushuna oladigan milliy korpuslarda dialektizmlar bazasini yaratish muhim vazifa bo'lib kelmoqda. Natijada esa shevalarni tahlil qilish, o'rganish va tadqiq etish yanada kengaymoqda. Shu bilan birga bugungi kunda yuqolib boryotgan lahjalarni yozib olish va qayta tiklab o'rganish ham o'z samarasini beryapti.

Dialektologiya (yunon.dialektos – sheva) so'zi tilshunoslikning sohalaridan biri bo'lib, bir hududga tegishli bo'lgan sheva va lahjalarni o'rganadigan bo'lim. Dialektizmlarni o'rganish va tahlil qilish turkologiyada Mahmud Qoshg'ariyning “Devonu lug'atit turk” asaridan boshlangan desak, mubolag'a bo'lmaydi, albatta. Ushbu asarda har xil millat va ellatlarning lahjalarini o'rganish, ular o'rtasidagi farqli va o'xshash tomonlarini ochib berishda qiyosiy lingvistika nuqtayi nazaridan yondashilgan. Asosan dialektizmlar badiiy asarlarda hududga oid bo'lgan voqea-hodisalarni ifodalash, badiiy ruh berish kabi vazifalarni bajaradi. Shevalarni qo'llash uslublarda cheklangan bo'lib, badiiy uslubda keng miqyosda qo'llaniladi, ammo ilmiy, rasmiy, uslublarda esa deyarli uchratmaymiz. Shu sababli dialektizmlar adabiy tilda boshqa ma'nolarni ham ifodalab kelishi mumkin. Dialektizmlarni o'rinli qo'llay olish asar ta'sircanligini va o'qishlilikini oshiradi.

Hozirgi kunga kelib shevalarni tadqiq qilish borasida S. Ashirboyev<sup>2</sup>, X. Doniyorov<sup>3</sup>, S. Ibragimov, Y. Saidov, X. Fayziyeva<sup>4</sup>, Nurmonov F. X.<sup>5</sup> kabi olimlarimiz o'z qarashlarini ifoda etgan.

Dialektizmlar tilmizning ajralmas bo'lagi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Chunki har bir lahja badiiy asarlarda to'laqonli ravishda o'z o'rniga ega. Biz bemalol aytishimiz mumkinki, Tog'ay Murod, Murod Muhammad Do'st, Shukur Xolmirzayev asalarida dialektizmlardan keng qamrovda va o'z o'rnida foydalanilgan. Mazkur yozuvchilar asarlari oddiy insonlar ya'ni qishloq odamlari tilidan bayon qilingan.

Endi amaliy dialektologiya keladigan bo'lsak, bu doirada ilk tadqiqot sifatida M. Xolovaning ishlarini sanab o'tish joiz. Unda Boysun tumani “3”lovchi aholi dialekti misolida shevalar korpusi va bazasining tuzilishi, strukturasi va lingvistik asoslari, ya'ni tamoyillari

<sup>2</sup> Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi // Toshkent: Nodirabegim. – 2021.

<sup>3</sup> Sanaqulov U., Karimov S. UDK: 494.3 Qipchoq etnonimi professor Xudoyberdi Doniyorov talqinida // ilmiy axborotnoma. – C. 31.

<sup>4</sup> Fayziyeva X. O'zbek tili Boysun-Sho'rchi guruh shevalarining lug'at xususiyatlar. Filol. f, f, d, (PhD) avtoref. – Termiz. 2023.

<sup>5</sup> Nurmonov F. X. O'zbek shevalarining o'rganilishi va dialektal lug'atlarning ahamiyati haqida // Research and education. – 2023. – T. 2. – №. 10. – C. 30-40.

ishlab chiqilgan<sup>6</sup>. Olimaning fikriga ko'ra, shevalarni bir korpusga yig'ish bir necha bosqichlarni o'z ichiga olmog'i darkor. Ya'ni: birinchidan, dunyo korpus lingvistikasidagi dialektal bazalarni tahlil qilish va tadqiq etish (masalan, Britaniya, Xelsinki, Arabiston, Norvegiya dilalektal korpuslari)<sup>7</sup>; ikkinchidan, jahon standartlarini o'rganib chiqib, o'zbek tili dialektizmlarining lingvistik asoslarini o'rganish (olimlar tadqiqotlarini nazariy yondashuv asosida)<sup>8</sup>; uchinchidan, o'zbek tili shevalarining xususiyatlarini inobatga olgan holda, dunyo dialektal korpusini o'rganishdan hosil bo'lgan tajribalarni tatbiq etish (amaliy yondashuvda mavzulashtirishni ma'qul ko'rilishi borasida)<sup>9</sup>; to'rtinchidan, o'zbek tilining izohli lug'atlarida shevalar tavsifi va tahlili (olimaning tadqiqotlarida statistika kuzatilmadi); beshinchidan, dialektal korpus tarkibidagi shevalarning, o'zbek tilining izohli lug'atlarida muqobil ko'rinishlarini o'z ichiga olishini ta'minlash va adabiy tilga bo'lgan munosabatini e'tiborga olish (lakunalarga ko'proq e'tibor qaratish)<sup>10</sup>; oltinchidan, qo'lyozma variantlardagi dialektizmga oid birliklar, gaplar, matnlarni kompyuterga joylash orqali elektron fayllar va matnlarni tahlil qilish<sup>11</sup>; yettinchidan, dialekt korpus va baza uchun yagona bo'lgan transkripsion belgili yozuvlarni ishlab chiqish<sup>12</sup>; sakkizinchidan, o'zbek dialektizmlaridagi matnlarning, morfologik, fonetik, va leksik-grammatik tizimlar uchun yagona bo'lgan belgilarni ishlab chiqish; to'qqizinchidan, shevalar korpusida ma'lumotlar almashinuvchanligi asosida ish koruvchi dialektologik atlaslarni tuzib chiqish; o'ninchidan, etnik aholining yasash joyini o'z ichiga oluvchi shevalar korpusining mavzuviy guruhlarini yaratish.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, o'zbek shevalarining korpusini tuzishning boshlang'ich nuqtasida turibmiz va bunda yechimini kutib turgan masalalarini amaliy doirasida hal qilish orqali tadqiqotlarni yuqori darajaga ko'tarish mumkindir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulhakimovna K. M. Thematic and passport meta-markups of dialectal texts in uzbek national corpus //Asian Journal of Research. – 2020. – T. 1. – №. 3.

---

<sup>6</sup> М. Холова. Ўзбек миллий шевалари корпусини тузишнинг лингвистик асослари (Бойсун тумани “ж”ловчи шевалари мисолида). Filol. f.f.d. (PhD) автореф. – Термиз. 2022.

<sup>7</sup> Холова М. А. Boysun shevasi korpusi: Ibtido (Boysun tumani “j” lovchi shevalar misolida) //Иновации в педагогике и психологии. – 2020. – №. SI-2№ 5.

<sup>8</sup> Холова М. А. О'zbek shevalarining standart tilga munosabati va til tizimidagi o'rni (boysun tumani “j” lovchi shevalar misolida) //Международный журнал искусство слова. – 2020. – Т. 3. – №. 5.

<sup>9</sup> Abdulhakimovna K. M. Thematic and passport meta-markups of dialectal texts in uzbek national corpus //Asian Journal of Research. – 2020. – Т. 1. – №. 3.

<sup>10</sup> Abdulhakimovna K. M. Software and data entry principles of the online dialect database // Current research journal of philological sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 46-53.

<sup>11</sup> Abdulhakimovna X. M., Ozoda L. Lingvistikada orfografik tamoyillar va tahlillar // Qo'qon universiteti xabarnomasi. – 2022. – Т. 5. – С. 104-106.

<sup>12</sup> Абдулхакимовна К. М. Транскрипция в корпусе узбекского национального бойсунского диалекта (на примере "j" диалектов Байсунского района) //Журнал критических обзоров. – 2020. – Т. 7. – №. 5. – С. 844-847.

2. Abdulhakimovna K. M. Software and data entry principles of the online dialect database // Current research journal of philological sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 46-53.
3. Abdulhakimovna X. M., Ozoda L. Lingvistikada orfografik tamoyillar va tahlillar // Qo'qon universiteti xabarnomasi. – 2022. – Т. 5. – С. 104-106.
4. Абдулхакимовна К. М. Транскрипция в корпусе узбекского национального бойсунского диалекта (на примере "j" диалектов Байсунского района) // Журнал критических обзоров. – 2020. – Т. 7. – №. 5. – С. 844-847.
5. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi // Toshkent: Nodirabegim. – 2021.
6. М. Холова. Ўзбек миллий шевалари корпусинитузишнинг лингвистик асослари (Бойсун тумани "ж"ловчи шевалари мисолида). Filol. f.f.d. (PhD) автореф. – Термиз. 2022.
7. Nurmonov F. X. O'zbek shevalarining o'rganilishi va dialektal lug'atlarning ahamiyati haqida // Research and education. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 30-40.
8. Sanaqulov U., Karimov S. UDK: 494.3 Qipchoq etnonimi professor Xudoyberdi Doniyorov talqinida // ilmiy axborotnoma. – С. 31.
9. Fayziyeva X. O'zbek tili Boysun-Sho'rchi guruh shevalarining lug'at xususiyatlar. Filol. f, f, d, (PhD) avtoref. – Termiz. 2023.
10. Холова М. А. Boysun shevasi korpusi: Ibtido (Boysun tumani "j" lovchi shevalar misolida) // Инновации в педагогике и психологии. – 2020. – №. SI-2№ 5.
11. Холова М. А. O'zbek shevalarining standart tilga munosabati va til tizimidagi o'rni (boysun tumani "j" lovchi shevalar misolida) // Международный журнал искусство слова. – 2020. – Т. 3. – №. 5.